

“QUR’ON” LAFZINING LUG‘ATDAGI VA ISTILOHDAGI MA’NOLARI TAHLILI

Soliyev Elyorbek Muxammadmo’sa o‘g‘li

Yangi Asr universiteti Filologiya kafedrasи o‘qituvchisi

Annotatsiya: Ushbu maqolada “Qur’on” lafzining lug‘atdagi va istolohdagi ma’nolarining tahlili ilmiy dalillar bilan batafsil yoritilgan.

Kalit so‘zlar: Qur’on, qiroat, maqrū’, qara’a.

“Qur’on” so‘zining lug‘aviy ma’nosini ko‘rib chiqishdan oldin “Qur’on” lafzining kelib chiqishini o‘rganib olishimiz, uning lug‘aviy dalolatlariga, Qur’on uchun ixtiyor qilingan boshqa muhim ismlariga to‘xtalib o‘tishni lozim deb ko‘rdik.

“Qur’on” lafzining kelib chiqishi xususida ulamolar turli xil fikrlarni aytganlar. Ba’zilari uni “hamzali” desa, boshqalari “hamzasiz” deydilar. “hamzasiz” deydigan ulamolar Shofi’iy¹⁸, Farro¹⁹, Ash’ariy²⁰ va ularga ergashadiganlardir.

Imom Shofi’iy bu borada shunday deydi: “Albatta, “Qur’on” lafzi ma’rifa (ya’ni “al” aniqlik artikiliga ega so‘z) bo‘lib, boshqa lafzdan chiqarib olinmagan va “hamzali” ham emas. Balki nabiy sollallohu alayhi va sallamga nozil qilingan kalomga atoqli ism qilib, qo‘yilgan tabiiy nomdir. “Qur’on” lafzi قرآن fe’lidan olinmagan. Agar ushbu fe’ldan olingan bo‘lganida, har bir o‘qiladigan narsa Qur’on bo‘lib qolardi. Lekin u Allohning kalomiga qo‘yilgan nomdir, xuddi Tavrot va Injil kabi”

Imom Farro esa, quydagilarni aytadi: “Qur’on” lafzi قرینة (ya’ni yaqin) so‘zining ko‘plik shakli bo‘lgan قرائىن so‘zidan chiqarib olingan. Chunki oyatlar bir-

¹⁸ Imom Ash’ariy (260-337) hijriy

¹⁹ Imom Farro (144 – 207) hijriy

²⁰ Imom Shofe’iy (150-204) hijriy

biriga o‘xshash, ya’ni oddiyroq qilib, aytganda yaqindir. Ma’lumki “قرائىن” kalimasidagi “nun” asliydir”.

Ash’ariy va u kishiga ergashganlarning fikri quydagicha:

“Qur’on” lafzi “قرن الشيء بالشيء” jumlasidagi “قرن” fe’lidan chiqarib olingan, ya’ni “qo’shdi” ma’nosini anglatadi. Chunki suralar va oyatlar bir-biriga yaqin bo‘lib, ularning ba’zisi-ba’zisiga qo’shiladi”. Kitoblarda “Qur’on” so‘zi hamzasizdir degan fikrlarni to‘g‘ri emasligini e’titof etishgan. Uni noto‘g‘ri ekanini bilish uchun lug‘at va til qoidalarini o‘rganishning o‘zi kifoya qiladi.

Nahvshunos olimlardan imom Zajjoj va boshqalar “Qur’on” lafzi “hamzali”dir deyishgan.

Imom Zajjoj shunday deydilar: “Qur’on” lafzi “ فعلان ” vaznidagi “hamzali” kalima bo‘lib, “jamalamoq” ma’nosidagi “قرأ” so‘zidan olingan. Masalan, hovuzga suv to‘planganini aytish uchun arablar ushbu nom ya’ni “قرآن” kalimasini ishlataladilar. Qur’onga shunday nom berilishi o‘zidan oldingi kitoblarning samarasini jamlaganidandir”.

Oxirgi to‘g‘ri fikr, hamda eng kuchlisiga ko‘ra “Qur’on” so‘zi lug‘atda “qiroat”ning sinonimi, ya’ni ma’nodoshidir.

“Qur’on” so‘zi arab tilida bir necha ma’nolarni ifoda qiladi va bu ma’nolar Alloh taoloning ushbu nomdagi Kitobi – Qur’oni karimda ham o‘z ifodasini topgan.

“O‘qish” ma’nosи buyruq maylidagi “Iqro”” ya’ni o‘qi, qiroat qil ma’nosidagi so‘z bilan boshlangan bu ilohiy vahiy majmuasining nomi “o‘qish”, “qiroat qilish” degan ma’nolarni anglatuvchi masdar “Qur’on” bo‘lib qoldi. “Qur’on” va “qiroat” so‘zlarining ma’nosи bir desak ham bo‘ladi. Aytgan gapimizning dalili o‘laroq Qur’oni karimdan oyatlarni keltirib o‘tamiz:

أَقِمِ الصَّلَاةَ لِذُلُوكِ الشَّمْسِ إِلَى غَسَقِ اللَّيْلِ وَقُرْآنَ الْفَجْرِ إِنَّ قُرْآنَ الْفَجْرِ كَانَ مَشْهُودًا (٧٨).

“Quyosh og‘ishidan to tun qorong‘isigacha namozni to‘kis ado et. “Fajr Qur’oni” ham. Albatta, “Fajr Qur’oni” shohid bo‘linadigandir. “Niso” surasi 78-oyati.

Ushbu oyati karimada e'tibor nazari bilan qarasak "fajr Qur'oni" degan jumla "tonggi qiroat" degan ma'noni bildiradi. Alloh taolo Qiyomat surasida shunday marhamat qiladi:

إِنَّ عَلَيْنَا جَمْعَهُ وَقُرْآنَهُ (١٧) فِإِذَا قَرَأْنَاهُ فَاتَّبَعْ قُرْآنَهُ (١٨).

"Albatta, u (Qur'on)ni jamlash va o'qib berish Bizning zimmamizda. Bas, uni o'qisak, qiroatiga zehn solib tur". "Qiyomat" surasi 17-18-oyatlari.

Bu oyatlarda biz "o'qib berish", "qiroat" deya tarjima qilgan so'z "qur'on" kalimasidir. Islom dini bosh dasturning aynan "Qur'on", ya'ni "O'qish" yoki "O'qilmish" deb nomlanishida ham katta ma'no o'z ifodasini topgan. "Bu ilmga, ma'rifatga asoslangan dindir", degan ma'no bor bunda.

Yana bir ma'nosi "jamlash"dir. Lug'atshunoslar "Qur'on" lafzining "o'qimoq", "qiroat qilmoq"dan tashqari "jamlash", "o'zida mujassam etish" ma'nosida ham ishlatar edilar. Bunga Amr ibn Kulsum Tag'libiyning turmush qurmagan bokira qizini sifatlab "لَمْ تَفْرُأْ جَنِينًا" ya'ni "o'zida homila mujassam etmagan" degan gapi misol bo'la oladi.

"Qur'on" lafzida "jamlash" ma'nosi borligiga Allohning oxirgi kalomi harflar va sonlarning bir-biriga qo'shib, jamlanishidan, oyat va suralarning birikishidan xosil bo'lganiga hamda bu kitob o'zida dunyo-yu oxirat yaxshiliklarini jamlaganiga ishora bor.

"Qur'on" so'zing istilohiy ma'nosi. Mana, o'n to'rt asrdan buyon ko'pchilik "Qur'on" lafzining lug'aviy ma'nosini bilmasa ham, uning musulmonlarning muqaddas kitobi ekanini tan olib kelmoqda. Lekin Qur'oni karimni tanish, uning ismining lug'aviy ma'nosini yoki u kimlarning muqaddas kitobi ekanini bilishning o'zi bilan bo'lmaydi. Bu muqaddas kitobning qanday ekanini bilish uchun ham ilm egalarining maxsus ta'rifiga murojaat qilishga tog'ri keladi.

Uning istilohiy ma'nosi: **"Qur'on Alloh taolonning Muhammad sollallohu alayhi va sallamga vahiy orqali nozil qilngan, tavotur ila naql qilingan, ibodatda o'qiladigan ojiz qoldiruvchi kalom"** hisoblanadi.

Ushbu ta’rifni yaxshi tushunib etishimiz uchun uni bir oz sharhlashimga to‘g‘ri keladi.

“Alloh taolonning Muhammad sollallohu alayhi va sallamga vahiy orqali nozil qilingan” degan jumladan Alloh taolonning Muhammad sollallohu alayhi va sallamdan boshqa payg‘ambarlariga nozil qilgan Tavrot, Zabur, Injil hamda turli sahifalari Qur’oni karim bo‘lmasligi kelib chiqadi. Haqiqiy Zabur, Tavrot va Injil ham Alloh taolonning kalomi, ammo ular Muhammad sollallohu alayhi va sallamga nozil etilmagani uchun Qur’oni karim bo‘la olmaydi.

“Tavotur ila naql qilingan” degan iboradan tavotur ila naql qilinmagan kalom, Qur’oni karim bo‘la olmasligi kelib chiqadi. “Tavotur” deganda kalomning yolg‘onchiga chiqarib bo‘lmaydigan darajadagi ko‘p sonli kishilar tomonidan naql qilinishi tushuniladi. Ularning hammalari ishonchli, ya’ni biror og‘iz yolg‘onga yaqinlashmagan odamlar bo‘lib, ko‘pliklari sababli, yolg‘onga kelishib olishga ham imkonlari yo‘q bo‘ladi.

Qur’oni karimning birinchi kalimasidan boshlab, oxirgi kalimasigacha har bir so‘z aynan ana shu tarzda naql qilingan. Qur’oni karimni Alloh taoladan vahiyining amini (ishonchli sohibi) bo‘lmish Jabroil alayhissalom Muhammad sollallohu alayhi va sallamga naql qilinganlar. Ushbu naql qanday kechishini, ya’ni Muhammad sollallohu alayhi va sallamga Qur’oni karim oyatlari Jabroil alayhissalom tomonlaridan qanday yetkazilishini ko‘pchilik sahabalar o‘z ko‘zlar bilan ko‘rib turganlar.

Buning ustiga, har safar vahiy nozil bo‘lgandan so‘ng, Muhammad sollallohu alayhi va sallam “Menga kotiblarni chaqiringlar” der edilar. Kotib sahabalar kelganlaridan so‘ng, ularga oyati karimalarni Jabroil alayhissalomdan qanday qabul qilib, olgan bo‘lsalar, shunday qilib, o‘qib berar edilar. Kotiblik qiluvchi sahabalar oyatlarning har bir harfini ulkan ehtimom ila yod olar edilar. Muhammad sollallohu alayhi va sallam Qur’oni karimning har bir oyati, har bir kalimasi, har bir harfining misli ko‘rilmagan e’tibor bilan qabul qilib, olinishi, yodlanishi, yozilishi hamda amal qlinishiga, vasfiga so‘z ojiz qoladigan darajada katta ahamiyat bergenlar.

Alloh taolo esa payg‘ambarimiz sollallohu alayhi va sallamga Qur’oni karimning o‘zida Jabroil alayhissalomning qiroatiga diqqat bilan qulqoq solishni buyurgan. Qur’oni karim oyatlarining rasululloh sollallohu alayhi va sallamning qalblariga joylanib, tillaridan joriy bo‘lishini hamda uning tafsirini bayon qilib, berishni Alloh taolo O‘z zimmasiga olgan.

O‘z navbatida payg‘ambar alayhissalomdan Qur’oni karim oyatlarini qabul qilib, olgan sahabayi kiromlar ham shogirdlariga oyatlarni yuqorida zikr qilinganidek, harfma-harf yetkazganlar. Qur’oni karim o‘sha davrdan hozirgacha huddi o‘sha tarzda son-sanoqsiz odamlar tomonidan ishonchli tariqada naql qilinib kelmoqda.

“Ibodatda o‘qiladigan” degan qayddan “namozda o‘qiladigan” degan ma’no kelib chiqadi. Qur’oni karim tilovatisiz namoz bo‘lmaydi. Alloh taoloning boshqa vahiyilari, misol uchun, hadis qudsiylarni namozda o‘qib bo‘lmaydi. Namozda o‘qishga faqatgina Qur’oni karim xos qilingan. Bu ham ilohiy kitobni ajratib turuvchi sifatlardan biridir.

“Ojiz qoldiruvchi kalom” degan sifat ham faqatgina Qur’oni karimning o‘ziga xos xususiyatlardan biridir. Qur’oni karimning har bir oyati, har bir ahkom-u axbor jihatidan kishilarni ojiz qoldiruvchidir. Ya’ni insonlar har qancha urinsalar ham, unga o‘xhash narsani ijod qila olmaydilar. Alloh taolo aytgandek:

وَإِنْ كُنْتُمْ فِي رَيْبٍ مِّمَّا نَزَّلْنَا عَلَىٰ فَأْتُوا بِسُورَةٍ مِّنْ مِّثْلِهِ وَادْعُوا شَهِدًا عَكْمٌ مِّنْ دُونِ اللَّهِ إِنْ كُنْتُمْ
صَادِقِينَ

Agar bandamizga (Muhammadga) **tushirgan narsamizdan** (Qur’ondan) **shuhada bo‘lsangiz, bas, siz ham unga o‘xhash** (birgina) **sura** (yoziб) **keltiring** va **Allohdan o‘zga guvohlaringizni chaqiring** – agar rostgo‘y bo‘lsangiz. “Baqara” surasi 23-oyati.

Alloh taolo Qur’oni karimning o‘zida odamlarni agar qodir bo‘lsalar, Qur’oni karimga o‘xhash narsa keltirishga chaqirgan. Odamlar har qancha urinmasinlar, bu ishning uddasidan chiqa olmaganlar, chiqa olmayaptilar, chiqa olmaydilar ham.

Alloh taolo Qur'oni karimni o'zining eng afzal va eng so'nggi payg'ambari bo'lmish Muhammad alayhissalomning asosiy mo'jizalari qildi. Avval o'tgan payg'ambarlarning mo'jizilari moddiy mo'jizalar bo'lib, har bir payg'ambarning bu dunyoda turmushiga bog'liq qilingan edi. O'sha payg'ambar alayhimussalomlar bu dunyodan o'tishlari bilan u zotlarga berilgan mo'jiza ham o'z kuchini yo'qotgan edi. Chunki Muhammad sollallohu alayhi va sallamgacha bo'lgan barcha payg'ambarlarning shariatlari vaqtinchalik bo'lgan.

Muhammad sollallohu alayhi va sallamning shariatlari qiyomatgacha boqiy bo'lgani, u zotga asosiy mo'jiza sifatida qiyomatgacha boqiy qoladigan, u zotning hayotlariga bog'liq bo'lмаган ma'naviy mo'jiza – Qur'oni karim beriladi. Qur'oni karimning ushbu ta'rifi arab tili ulamolari, faqihlar va usuli fiqh olimlari orasida ittifoq qilingan ta'rifdir.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Doktor Aliy ibn Sulaymon al-Abid. Tarjimatul- Qur'on.
2. Shayx Muhammad Abdulazim az-Zarqoniy. Manahilul-Qur'on fi ulimil-Qur'on. –Saudiya Arabiston: 3. Maktabatu nizar Mustafa Al-boz. 2-nashr 1998. – J. 2.
4. Shayx Abdulaziz Mansur. Qur'oni karim ma'nolarinining tarjima va tafsiri
5. Hofiz Jaloliddin Abdurahmon as-Suyutiy. Al-Itqon fi ulumil-Qur'on. – Qohira Darul-G' oddi al-Jadiyd. 2006 – 4-juz.
6. Doktor Muhammad Abdulkarim al-Jazoiri. Muqaddima fi ulumil –Qur'on va ulumit-tafsir. 1-nashr Jamiyatud-Da'val –Islomiya.